



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqarib boshlagan

№5 (767), 2024-yil 7-mart

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



Quvondiq SANAQULOV,
"Navoiy kon-metallurgiya
kombinati" AJ Boshqaruv raisi – Bosh
direktori

Qadri opa-singillar!

Barchangizni bahorning ilk bayrami, 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan chin qalbdan muborakbod etaman. Yangi O'zbekistonda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida insonga bo'lgan e'tibor, g'amxo'rlik yangi bir bosqichga ko'tarilib, ayol qadri ulug'lanmoqda. Bunday xayri ishlar kombinatimizda ham olib borilmoqda. Zero, inson qadr topgan yurtida tinchlik va farovonlik, ahillik va qut-baraka bo'ladi.

Biz, har doim siz muhtarama zotlarni oyga, quyoshga, gulga o'xshatamiz. Hayo malikasi, muhabbat mehvari deymiz. Bu - chin haqiqatdir. Chunki, yuksak qadr-qimmatga, hurmat va e'zozga loyiq siz, aziz opa-singillarimiz, dilbar qizlarimiz bilan hayot hamisha mazmunli, olam munavvar, umming har lahza go'zaldir. Yoshi ulug' momolarimiz, mo'tabar onalar va opa-singillarimizning matonati, kuch-g'ayrati, oilasiga sadoqati va mehr-muhabbati oldida hamisha bosh egamiz.



- mart -
Xalqaro xotin-qizlar kuni

Ayol bilan hayotimiz go'zal va mazmunli, xonadonlarimiz obod va fayzli, ko'ngillarimiz xotirjam. Bugun ayol – nafaqat yoshlarni ilm nuri sari yetaklayotgan o'qituvchi-yu oq xaladagi shifokor, balki dunyoqarashi keng tadbirkor, erkaklar bilan yelkama-yelka ishlayotgan konchi ham. Bizning qahramonlarimiz esa shijoatli kran haydovchilardir.

OSMONDAGI GO'ZALLAR

Markaziy kon boshqarmasi 2-gidro-metallurgiya zavodining eng muhim yordamchi bo'limlaridan biri hisoblangan "Kranlar" uchastkasida mashinistlarining asosiy qismini xotin-qizlar tashkil etadi. Ular yerdan 23-42 metr balandlikda texnikalarni boshqarishmoqda. 50 nafardan ortiq shijoatli ayollarimizning sa'y-harakati bilan 10 tonnadan 160 tonnagacha bo'lgan og'ir moddiy-tovar boyliklari vagonlarga yuklanib, kerakli joyga yetkazilmoqda. Bir zum ularning chaqqon harakatlari, katta texnikalarni boshqarishayotganini kuzatib, ko'pchiligi allaqachon bu sohaning yetuk mutaxassisi bo'lib ulgurishganini angladik.

Zulfiya opa Shukurova qariyb 30 yildirki, o'zining sevimli kranida 100 tonnadan ortiq yuklarni 30-40 metr balandlikda ko'tarib, kerakli manzilga yetkazish bilan birga o'nlab shogirdlarga ustozlik ham qilyapti.

boshqarish menga deyarli qiyinchilik tug'dirmaydi", – deydi Dilobar Muhammedova.

Jamoadagi tajribali kran mashinistlaridan yana biri Muqaddas opa Nurnazarova. Bu opa ham mana 37 yildirki, mehnat faoliyatining asosiy qismini o'zi tanlagan kasbida o'tkazaypti.

"Kasbimiz hushyorlikni talab etadi,



balandlikda mo'ljalni aniq olib ishlash kerak. Bizning kasbdagi insonlar yozning issig'ida-yu, qishning izg'irida ham o'ziga topshirilgan vazifani bajarishi lozim. Hamkasblarining mohirligi, kasblariga sadoqati, ishlariga vijdonan yondashishlari natijasida zavodimiz keyingi yillarda yuqori ko'rsatkichlarga erishyapti", – deydi opa biz bilan suhbatda.

Ko'p yillik ish tajribasiga ega Muqaddas opaning faoliyatini bir zum kuzatib, shunday fikrga keldim: yetuk mutaxassisdagi tajriba, g'ayratu shijoat hali an-



"Ko'p yillardan buyon ishlayotganim uchun bunday balandlikda va shovqinda ishlash menga qiyinchilik tug'dirmaydi. Ba'zida tinimsiz, dam olmasdan ham ishlaymiz. Ishimiz mas'uliyatli. Har doim ishni yaxshi kayfiyatda boshlashga harakat qilaman. Biz ayollar uchun mamlakatimizda keng imkoniyatlar yaratilgan bo'la turib, ishlamaslik, biror ezuq maqsad yo'lida intilmaslik mumkinmi? Albatto yo'q. Bugun qaysi sohada bo'lmasin, qiyinchiliklarni yengib o'tgan ayollarning mehnati munosib qadr topayotganiga guvoh bo'lyapman. Bunday yuksak e'tibordan bahramand ekanimni faxrlanib aytaman. Kamtarona sa'y-harakatlarni hamisha rahbariyat e'tiborida bo'lib, munosib taqdirlanaypti. Kelgusida ham halol mehnatim orqali Vatanim ravnaqi-



ga ko'proq hissa qo'shish niyatidaman. Yon-atrofimdagi "kranchi ayollar"ni kuzatarkanman, ularning intilishidan, kasbiga mehdan hayratga tushaman. Ular shuncha kuch-g'ayratni qaydan olishyapti, deb o'ylayman. Ularning har biri o'ziga topshirilgan vazifani siddiqildan bajarishyapti", – deydi Z.Shukurova.

"Zavodga ishga kirganimga 15 yil bo'ldi. Shundan 10 yilida kran boshqaraman. Ishimiz 2 smenada tashkil etilgan. Uchastka boshlig'i Mirjon Haydarov har doim ishni to'g'ri taqsimlab, texnika xavfsizligiga amal qilib ishlashimizni ta'kidlaydi. O'zim texnikaga qiziqqanligim bo'is qizim Rayxona Nasridinova ham shu yo'nalishni tanladi. Shu zavodda ishlashni maqsad qilib, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida o'qiyapti. Ham oila, ham ishni birday



cha vaqt xizmat qilsa ajab emas. Sitabonu Bekmurodova bu jamoaning eng yosh vakilasi hisoblanadi. Yoshligidanoq texnika bilan tillasha oladigan mohir mutaxassis bo'lishga qiziqqan va maqsadiga erishish yo'lida tinmay harakat qilgan Sitabonu endigina 22 yoshni qarshiladi. Kuchli ishtiyoq uning taqdirini ana shu mashaqqatli, ammo zavqli kasb bilan bog'ladi. O'ziga berilgan vazifani mas'uliyat bilan bajarib kelayotgan Sitabonu kasbdoshlari orasida "eng chaqqon kran boshqaruvchisi" deb tan olindi.

"Dadam va akalarni kombinat tizimida ishlashadi. Oilamizni konchilar oilasi desam ham bo'ladi. Ota-onam ko'magi, eng asosiysi zavod rahbariyatining ishonchi va qo'llab-quvvatlashi natijasida sevgan kasbim mutaxassisiga aylandim. Bugun zavodda eng yosh kran mashinistiman, o'z faoliyatimni tajribali ustozlarim ko'magida olib boryapman. Hozirda 20 tonnalik yuk ko'tarish mashinasini boshqaryapman. Kasbimda menga ustozlik qilib kelayotgan Dildora va Zulfiya opalarga o'z minnatdorchiligimni bildiraman. Jamoamizdagi og'ir kon texnikasi hisoblangan kranlarni boshqarib kelayotgan 50 nafar hamkasb opalarimga kuch-quvvat tilayman", – deydi Sitabonu bir zum o'zi boshqarayotgan kranini to'xtatib.

Ayol – rafiq, ona, kelin, ishonada mas'uliyatli ishchi. Qahramonlarimiz baxtidan quvonib, iqbolidan suyunib gapirar ekan, har biri tanlagan kasblarini baxtu-saodatlarining kaliti hisoblashadi. Ularning bu e'tirofi ayni haqiqat.

Nafosat ZIYOYEVA.

NAQADAR MO'TABAR MUHTARAM AYOL

Oilada farzand tarbiyasi, to'g'or tebratish, kundalik vazifalardan ortib, korxonamizda biz bilan bir safda turib, tug'u toshdan oltin yaratayotgan, yurt taraqqiyotiga baraka qo'shayotgan 6 254 nafar xotin-qizlar, jumladan, 1 311 nafar oliy ma'lumotli mutaxassislar, 268 nafar rahbar, 1 230 nafar "NKMK faxriysi" va "Konchilik shuhrati" ko'krak nishonlari sohiblari, 2 nafar mahalliy Kengash deputati bo'lgan ayollarning xizmatlari har qanday e'tirofqa loyiq. Ular sha'niga iliq gaplarni aytish biz uchun faxr va sharafdir.

Shuni mamnuniyat bilan aytishim mumkin, bayramdan-bayramgacha bo'lgan davr kombinat xotin-qizlari hayotida quvonchli yutuqlarga boy bo'ldi. Navoiy mashinasozlik zavodi mashinisti Zulfiya Ahmedova "Mehnat shuhrati" ordeni, 3-gidrometallurgiya zavodi katta ustasi Guljamila Turqanbayeva, Zarafshon qurilish boshqarmasi kran-mashinisti Albina Pogosskaya va Shimoliy kon boshqarmasi bo'lim boshlig'i Maya Soy "Do'stlik" ordeni, "Aumino-Amantoy" koni laboranti Feruza Karimova "Shuhrat" medali, "Zarmitan" koni laboranti Mastura Qudratova "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi va kombinatda mukofotlanganlari soni 40 nafarga yetdi. Shu bilan birga, Shimoliy kon boshqarmasi Oliy Majlis Senati tomonidan o'tkazilgan "Gender tenglik faoli" respublika tanlovida faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Har gal ishlab chiqarish korxonalariga borganda, birinchi navbatda shu yerda ishlayotgan xotin-qizlar, ularga yaratilgan sharoitlarga e'tibor beraman. Muammolari bilan qiziqaman. Kerak paytda ularni qo'llab-quvvatlashga

intilaman. Chunki xotin-qizlarning ko'nglini ko'tarish, ularga ko'makdosh bo'lish yummamiz uchun ezgu amaldir.

Shu bois, kasaba uyushma Kengashi bilan birgalikda kombinat ayollarining ijtimoiy himoyasini yaxshilashga, ular uchun munosib ish va turmush sharoitlari yaratishga, mehnatini rag'batlantirishga doimiy e'tibor qaratib kelayapmiz. An'anaga ko'ra, bu yilgi bayram munosabati bilan ular 52 nafarini Faxriy yorliq va ko'krak nishonlari bilan taqdirlashga qaror qildik. "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da ham bunday e'tibor yanada kuchaytiriladi.

Har yili o'tkazib kelinayotgan "NKMK Oltin ayoli", "Nafosat malikalari" ko'rik-tanlovlari kombinat, "Navoiyuran" DK va "NKMK jamg'armasi" DM jamoalari hamkorligini ta'minlab, iste'dodli xotin-qizlarni aniqlash, ruhlantirish va rag'batlantirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Men bu tanlovlarni yanada kuchaytirish, har doim adolati o'tishini ta'minlash tarafdoriman va qo'llab-quvvatlayman.

Yana shuni ta'kidlamochimanki, hamkasb xotin-qizlarimiz orasida she'rlar, qasidalar, hikoyalar mashq qiladigan ijodkorlar ko'pchilikni tashkil etadi. Keyingi yillarda chop etilgan "Uyg'oq xotiralar", "Kengliklar sururi", "Zomin ilhomlari" kabi to'plamlarda xotin-qizlarimizning ham ijod namunalari joy oldi. Joriy yilda ham kombinatning eng faol, ijodkor xotin-qizlari haqida alohida kitob yaratish ishlarini boshlab yuborganmiz.

Aziz opa-singillar!

Bugun kombinat ulkan taraqqiyot yo'lidan borayotga-

nini yaxshi bilasiz. Keyingi yetti yilda qanchadan-qancha ishlar amalga oshirilmadi, deysiz! Birgina, 2021-2023-yillarda 23 ta yirik investitsion loyiha ishga tushirilib, 15,2 mingdan ziyod yangi ish o'mi yaratildi.

Yangi quvvatlarni foydalanishga topshirish hisobiga oltin ishlab chiqarish hajmini 2016-yilga nisbatan 30 foizga oshirishga erishdik. Davlatimiz Rahbari tomonidan tasdiqlangan 2026-yilgacha kombinatni rivojlantirish dasturini bajarishda ikki yil oldinga ilgirilib, oltin ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 7-o'rindan 4-o'ringa ko'tarildik. Bu yutuqlar zamirida bilim va tajribasi, mahorat va mehnatini kombinat ravnaqiga baxshida etib kelayotgan ko'pming kishilik jamoa safida sizlarning ham mehnatingiz mujassam. Fursatdan foydalanib, barchangizga korxonamiz rivojiga qo'shib kelayotgan munosib hissangiz uchun o'z tashakkurimni bildiraman.

Xabaringiz bor, Yurtboshimiz tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" strategiyasida ishlab chiqarish sur'atini yanada oshirish bo'yicha ulkan vazifalar qo'yilgan. Biz, jamoamiz bilan birga yangi imkoniyatlarni izlab topib, investitsion loyihalarni amalga oshirib, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirib, ko'zlagan marralarga erishamiz va bunga ishonaman.

Bugungi quvonchli kunda siz, xotin-qizlarimiz xizmatlari, fidokorona mehnatini e'tirof etgan holda, barchangizni yana bir bor Xalqaro xotin-qizlar bayrami bilan chin qalbdan tabriklayman.

Sizlarga sog'lik-salomatlik, oilaviy tinchlik-xotirjamlik, xonadonlaringizga fayzu baraka tilayman.

Yangiliklar. Xabarlar.

VAKILLARIMIZ KANADADA NUFUZLI ANJUMANDA ISHTIROK ETDI

Joriy yilning 3-6-mart kunlari Kanadaning Toronto shahrida tog'-kon sanoati, shu jumladan foydali qazilmalarni qidirish va qazib olish bo'yicha dunyodagi eng yirik tadbir – "PDAC 2024: The World's Premier Mineral Exploration & Mining Convention" anjumani bo'lib o'tmoqda.

1932-yildan boshlab Kanadaning konchilar va ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyasi tomonidan Toronto shahrida o'tkazilayotgan "PDAC" anjumanida har yili dunyoning 130 dan ortiq mamlakatidagi mingdan ortiq kompaniyalarning 30 ming nafar vakillari qatnashib kelmoqda. Anjuman doirasida tarmoq ko'rgazmalar va tadbirlari, taqdimotlar, investorlar bilan uchrashuvlar, ikki tomonlama muzokaralar olib boriladi.

Mazkur anjumanda "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ bosh direktorining transformatsiya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari Ye.Antonov, bosh direktorning iqtisod va oliy ma'lumotli bo'yicha o'rinbosari J.Hasanov, Xaridlarni tashkil etish va metodologiyasini takomillashtirish bosh boshqarmasi boshlig'i M.Amonov, Korporativ oliy ma'lumotli bo'yicha o'rinbosari A.Xudoyorovlar ishtirok etdilar.

DASTUR IJROSI - AMALDA

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqariladigan mahsulot turlarini ko'paytirish, tannarxini pasaytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlikni kengaytirishga e'tibor berilmoqda.

Joriy yilda mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan 905,4 mlrd. so'mlik 183 ta loyiha bajarilishini ta'minlash, sanoat kooperatsiyasi orqali mahalliy korxonalaridan 6,1 trln so'mlik mahsulotlarni xarid qilish mo'ljallangan.

Kombinatda dastlabka ikki oyda dastur doirasida 146,7 mlrd so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, mahalliy ishlab chiqaruvchilardan 819,7 mlrd so'mlik mahsulotlarni xarid qilindi. Bu ko'rsatkichlar mahalliyashtirish yo'nalishida belgilangan vazifalar oshirib uddalanishidan dalolat beraypti.

ISH UNUMDORLIGINI OSHIRGAN QURILMA

Markaziy kon boshqarmasi Markaziy ta'mirlash-mexanika sexida elektr dvigatellarining ta'mirlash samaradorligini oshirish maqsadida, parmalash dastgohiga qo'shimcha kesish qurilmasi o'rnatildi.

Elektr mashinalarining simlarini demontaj qilish eng qiyin va ko'p vaqt talab qiladigan ishdir. Buning uchun birinchi navbatda o'rnlarning qaysi qismida nuqson borligini aniqlash kerak. Shu vaqtga qadar chilangarlar arra yoki kesgichlar yordamida 0,1 dan 200 kVt-gacha quvvatli elektr dvigatellar o'rnlarning old qismlarini qo'lga keshirdi. Bu ishlar elektrmontyorlardan ko'p vaqt va katta kuch talab qilardi.

"Biz yangi qurilmani ishga tushirganimizdan so'ng ish samaradorligi ancha oshdi. Ilgari 8 soatda 10 ta, bu qurilma joriy etilganidan so'ng esa soatiga 10 ta elektr dvigatellar stator simlari kesilmoqda. Yana bir e'tiborli tomoni shundaki, qurilma qo'l mehnati bilan taqqoslaganda xavfsiz ishlashni ta'minlaydi", – deydi uchastka boshlig'i O'tkir Ochilov.

Ayni vaqtda sexning elektr ta'mirlash uchastkasida har oyda o'r-tacha 120-130 dona elektr dvigatellar to'liq va qisman ta'mirlanaypti.

YANGI TEGIRMONLAR LOYIHASI TAYYORLANDI

Navoiy mashinasozlik zavodining konstruktorlik byurosida 18 nafar konstruktor faoliyat olib boryapti. Ularning aniqlikka asoslangan loyihalari tufayli kombinatimizda ishlab chiqarishning yuksak maromi ta'minlanmoqda.

Yaqinda zavod konstruktorlari 3-gidrometallurgiya zavodi uchun tayyorlagan 45x60 o'lchamdagi tegirmon loyihasi ishlab chiqarishga berildi. Mutaxassislar tomonidan ushbu yirik tegirmon uchun kerak bo'ladigan turli o'lchamdagi 3,5 mingdan ziyod detallarga alohida chizmalar tayyorlandi. Joriy yilda ushbu o'lchamdagi ikkita tegirmon Uchquduqqa yetkazildi.

Zavodda ayni paytda 15 ming turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Korxonada konstruktorlari loyihasi asosida o'tgan yil 55x75, 70x23 o'lchamdagi tegirmonlar, SE-2500 rusumli nasos, yangi turdagi quritish pechi, 20 metr uzunlikdagi bunkerli konveyer, ventillatrlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Ayni paytda yangi turdagi tegirmonlarni loyihalashtirish ishlari boshlangan.

Kaftimda ko'tarsam kam!

Yurtim xotin-qizlari,
Charog'on yulduzlari,
Qishni bahor, tunni kun,
Aylaydi gul yuzlari.

Asaldan ham totiroq,
Navolidir so'zlari.
Qizargan yanoqlari,
Naq gilosning o'zlari.

Yurakka kipriklari,
Naq nasharning o'zlari.
Ohuning ko'zlarini,
Uyaltirar ko'zlari.

Qoshlari yangi chiqqan,
Hilol oynining o'zlari.
Har biri gulzordagi,
Gulg'unchaning o'zlari.

Opam, singlim, qizimsiz,
Suvarining o'zlari.
Onam, yorim, jon tomir,
Tanda jondir o'zlari!

Kaftimda ko'tarsam kam,
Gulyuzim desam ham kam.
Sizlar bor Abdulhamid,
Ikki olam kimdan kam!

Abdulhamid QURBONOV,
"Zarmitan" koni yetakchi
muhandisi.

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni

So'nggi yillarda davlatimiz Rahbari tomonidan xotin-qizlarga qaratilayotgan ulkan e'tibor, ko'rsatilayotgan ehtirom va g'amxo'rliklar jamiyatimizda ayollarning mavqeini yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Bunday ezgu ishlar mamlakatimizning ulkan sanoat korxonasi bo'lgan NKMKda ham o'z aksini topmoqda. Bugun kombinatimizda xotin-qizlarimiz mehnatini qadrlash, ularga katta ishonch bildirish an'anaga aylangan, chunki ular turli sohalarda erkaklar bilan bir safda faoliyat yuritib kelmoqdalar.

AYOLLAR KENGASHI –
AYOLLARGA KO'MAKCHI

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatida tashkil etilgan Ayollar Kengashining faoliyat yo'nalishi qanday? Qanday maqsad va vazifalarni ko'zlaydi? - "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining jamoatchilik asosida tashkil etilgan Ayollar Kengashi raisi Sabohat Nazarovaga shu kabi savollar bilan murojaat qilidik.

– Yurtimizda va aynan kombinatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayollar Kengashi korxonada va uning hududiy bo'linmalarida ayollarimiz uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganish, gender tenglik, har bir bo'linmada shakllantirilgan kadrlar zaxirasiga xotin-qizlarning nomzodlarini tavsiya etish va boshqa muhim yo'nalishlarda faoliyat olib borilmoqda.

Xotin-qizlarimizning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, ularga ijtimoiy, huquqiy va psixologik ko'mak ko'rsatish maqsadida, Ishchi guruh tashkil etilgan bo'lib, guruh joylarga chiqqan holda muntazam ravishda xotin-qizlarimizga yaratilgan mehnat sharoitlari bilan tanishib, ularning masalalarini joyida hal etish uchun xizmat qilayapti.

Mamlakat va jamiyat hayotida faollik hamda tashabbuskorlik ko'rsatgan, ko'p yillik fidokorona mehnati va korxonada ravnaqiga qo'shgan hisssasi inobatga olinib, xotin-qizlarimiz doimiy ravishda rag'batlantirib kelinmoqda. Jumladan, o'tgan yili kombinat va uning bo'linmalarida faoliyat olib borayotgan ayollarimizning 5 nafari "Do'stlik", "Mehnat shuhrati" ordenlari va "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan bo'lsalar, 50 nafari turli darajadagi "Konchilik shuhrati" ko'krak nishoni bilan, 350 nafari esa Faxriy yoriqlar bilan taqdirlanishdi.

Ayollar Kengashi tashabbusi bilan xotin-qizlar o'rtasida ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish, sog'lom ilmiy-ma'rifiy muhitni yaratish maqsadida "Alisher Navoiy ijodida komil inson tarbiyasi", "Balli qizlar!", "NKMK Oltin ayoli", "Nafosat malikalari" ko'rik-tanlovlari o'tkazib kelinmoqda. "Zakovat" intellektual o'yinini o'tkazish ham an'anaga



aylanib kelmoqda. Bunday tadbirlarning yuqori saviyada o'tkazilishida Markaziy, Shimoliy, Janubiy, "Qizilqum" kon boshqarmasi, Zarafshon qurilish boshqarmasi, "Sanoatelektromontaj" trest, Geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi Ayollar Kengashining jamoatchilik asosidagi raislari va faollari bo'lgan S.Soboyorova, D.Xalimova, N.Boltayeva, N.Djavarberdiyeva, N.Ro'ziyeva, M.Ro'ziyeva, M.Tursonovalarning xizmatlari beqiyosdir.

NKMK Ayollar Kengashi va viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi, viloyat huquq-tartibot organlari xodimlari, diniy idora vakillari, Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazi mas'ul xodimlari hamkorligida "Oila – muqaddas dargoh, tarbiya maktabi", "Oila – baxt qo'rg'oni", "Oila mustahkamligi va mas'uliyati, oilaviy ajrimlar va ularning oldini olish", "Biz zo'ravonlikka qarshimiz" mavzularida tashkil etilayotgan qator ma'naviy-ma'rifiy, targ'ibot tadbirlari yaxshi samara berayapti.

Xotin-qizlarning ishdan bo'sh vaqtlarida daromad keltiruvchi hunarlarini egallashlari uchun NKMK bo'linmalarida faoliyat olib borayotgan ayollarga kashtachilik, tikuvchilik va boshqa hunarmandchilik sirlarini o'rgatish bo'yicha mahorat darslari o'tkazilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 30 oktabrida imzolangan "Sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida,

"Sog'lom ayol – buyuk kelajak", "5 ming qadam" shiirlari ostida ommaviy marafonlar, "Gimnastika", "Men, oyim, dadam-sportchi oila", "Sport malikalari" kabi musobaqalar o'tkazilib, g'olib xotin-qizlarimiz diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanmoqdalar.

Ta'kidlash joizki, kombinatda gender tenglik masalasiga ham katta e'tibor qaratilgan. Mazkur mavzu bugungi davriming dolzarb masalalaridir. Navoiy

kon-metallurgiya kombinati respublikada ilk bora 2020 yilda o'tkazilgan "Gender tenglik faoli" milliy tanlovida, "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol va ziriqlik" nominatsiyasida g'oliblikni qo'lga kiritgani NKMK mehnat jamoasiga bildirilgan yuksak e'tirofdir.

2023-yil dekabr oyida o'tkazilgan "Gender tenglik faoli" respublika milliy tanlovida "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol turmush davlat organi" nominatsiyasida Shimoliy kon boshqarmasi Ayollar Kengashi 3-darajali diplom bilan taqdirlandi.

Sabohat Nazarovaning so'zlariga qo'shimcha tarzda shuni aytish kerakki, keyingi yillarda O'zbekiston xotin-qizlarining ovozi xalqaro minbarlarda ham dadil yangrayotgani barchamizni quvontiradi. O'tgan yili Toshkentda o'tkazilgan 5-Xalqaro kon-metallurgiya forumida kombinatning bir qator mutaxassislari ham qatnashib, xotin-qizlarning konchilik sanoatidagi roli, ularning yutuqlari to'g'risida mazmunli chiqish qildi.

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatida mehnat qilayotgan oqila va mehribon ayollarimiz, opa-singillarimizga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar ularning ertangi kunga ishonchini oshirib, hayotdan rozi bo'lib yashashlariga zamin yaratayapti. Oila tayanchi, jamiyat ustuni bo'lgan onalarimiz, ayollarimiz hayotdan rozi bo'lsa, butun xalqimiz ham rozi bo'ladi.

Suhbatdosh A.AXMEDOVA.

SHIFOKOR HAYOTINING MAZMUNI

Mana o'ttiz yetti yildan oshibdiki, u kunning istalgan paytida, hatto yarim tunda ham qo'ng'iroq qilib, ishga chaqirishlariga odatlanib qolgan. Rahmatli turmush o'rtog'i, shuningdek farzandlari ham bolalik davrlaridanoq buni odatiy holdek qabul qilishardi.

Tun yarmida, inson huzur qilib dam olayotgan paytda tezda kiyinib, ishga borish har kimga ham yoqmaymaydi. Qolaversa, ish bo'lganda ham shunchaki, go'yo qay bir yumush bilan bandlek vaqt o'tkazish emas, tiriklik va o'lim chegarasidagi ayolga yordam ko'rsatish, ko'p hollarda ikki jonning-ona va bolaning hayotini saqlab qolish uchun kurashish, bor bilim va tajribasini ishga solish, soniyalarda inson taqdiri hal bo'lishi mumkin bo'lgan tahlilali onlarda ba'zan hatto nazariya va amaliyot tushunchalarigada sig'maydigan, lekin ichki bir tuyg'u, allaqanday ilohiy kuchning madadiga tayanib, tavakkalchilikka boriy yetish, barcha tashvishlarni unutilib, fikru xayolning bir nuqtaga jamlab, bemorning tepasida ahvoli yaxshilanishi, uyqu va halovatlardan kechib qilgan muolajalarning samarali bo'lishini ilohiyat bilan kutib o'tirish oson emas, albatta. Ayol o'ziga kelib, zo'rg'a ko'zini ochgan yoki yangi tug'ilgan chaqalog'ini bag'riga bosib, ovoz chiqarmay, ko'zlarida minnatdorlik ifodasi bilan xalokkoriga boqqanida barcha qiyinchiliklar bir zunda unut bo'ladi. Charchoq, jarrohlik amaliyoti uzoq davom etgan va og'ir kechgan bois shifokorning butun vujudini qamrab olgan tahlila, so'ngisiz savollar o'rini shukronalik, yana bir ayolga yordam ko'rsatib, uning oilasi, yaqinlariga quvonch, shodlik baxsh etganligidan paydo bo'ladigan masrurlik, o'z kasbidan qoniqlik hissi egallaydi.


Navoiy kon-metallurgiya kombinati Tibbiy-sanitariya bo'limi akusher-ginekolog vrachi Mahbuba Fayzullayevna Marupova haqida so'z borayapti va uning hayotida ro'y bergan shunga o'xshash voqealarni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi. Tibbiy-sanitariya bo'limi rahbariyatining tug'ruq yoki ginekologiya bo'limiga og'ir ahvolda keltirilgan bemorda zudlik bilan jarrohlik amaliyoti o'tkazish yuzasidan qilgan turoq qo'ng'iroq'i, hamkasblarining mehojatlari biror marta bo'lsin Mahbuba Fayzullayevna tomonidan e'tiborsiz qolmagan. U onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilishni hayotining mazmuni, shifokorlik burchi deb biladi. Qaniydi, har bir vrach o'z ishiga shunday munosabatda bo'lsa edi! Aslida odamlarni, ayniqsa insonlarni dunyoga keltiradigan ayollarni darddan forig' etishdan ortiqroq baxt bo'lmasa kerak, dunyoda!

Rahbariyat zarurat tug'ilganda, M.Marupovani xizmat safari bilan TSBning Uchquduq, Zarafshon shaharlari, Zarafobod qo'rg'onidagi Tibbiy-sanitariya qismlariga ham amaliy yordam ko'rsatish uchun jo'natib turadi. Mahbuba Fayzullayevna joylarda bo'lganida bemorlarni davolash barobarida Tibbiy-sanitariya qismlari tug'ruqxonada va ginekologiya bo'limlari, onalik va bolalikni muhofaza qi-

lish ishlarini yaxshilash, zamonaviy tibbiy asbob-uskunalaridan samarali foydalanish borasida hamkasblariga zarur maslahatlar beradi, boy tajribasini ular bilan baham ko'radi.

Maxbuba Fayzullayevna Samarqand davlat tibbiyot institutini tamomlaganidan buyon o'tgan davrda xalqimiz salomatligi yo'lida vijdonan xizmat qilib kelmoqda. U dastavval bir yil viloyat shifoxonasida internaturani o'tgach, Navoiy shahar sog'liqni saqlash bo'limi shifoxonasida, so'ngra 2-sonli poliklinikada akusher-ginekolog vrach sifatida faoliyat ko'rsatdi. 1993-yildan e'tiboran esa TSBda ishlab, shifokorlik kasbini bekorga tanlamaganligi, ayniqsa ginekologiya yo'nalishida nazariy bilim va amaliy ko'nikmasini mutasils oshira borishini to'la namoyon etmoqda. Mahbuba Fayzullayevna tajribali mutaxassis va shifokorlarning sohaga oid yangiliklar haqida vaqti matbuot nashrlarida e'lon qilinayotgan maqolalarini muntazam mutolaa qilib boradi. Shu ma'noda, uning butun vrachlik davri o'qish, bemorlarni davolashning nozik sir-asrorlarini qunt bilan o'rganish va qo'llanish yillari bo'layapti. Maxbuba o'ziga ustoz deb bilgan T.Sharipov, A.Ildiyev, S.Paramonova, N.Nemsevizh, P.Cherepanovalarning ko'magi, beminnat maslahatlari tufayli shifokorlikning kitoblarda yozilmagan qonuniyatlari, bemorning nafaqat jismini, balki ruhini ham davolash ilmidan xabardor bo'ldi. Bularning barchasi Mahbuba Fayzullayevnaning ongli faoliyatida juda asqotib, bemorlarning mehr-muhabbatini, ishonchini qozonishiga olib kelyapti. Darvoqe, hali farzandlari yosh davrida yo'q, oila tashvishlari, qizlari va o'g'lining tarbiyasi bilan bog'liq qiyinchiliklarga qaramasdan Rossiyaning nufuzli tibbiyot muassasalarida sakkiz marta malaka oshirganligi Mahbuba Fayzullayevna o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lish uchun astoydil intilganidan dalolat beradi. Vrach M.Marupova Butunrossiya tibbiyot akademiyasining V.I.Kulakov nomidagi akusherlik va ginekologiya markazida malaka oshirganligi fikrimizga isbot bo'ladi. U o'qish, malakasini oshirish jarayonida og'ir ginekologik jarrohlik amaliyotlari, ularda laparoskopik tibbiy uskunalarini qo'llanishni o'rganishga alohida e'tibor berdi. Aksariyat bemorlar va hamkasblari Mahbuba Fayzullayevnani ginekolog-jarroh sifatida e'tirof etishlari bejizga emas.

Mahbuba Fayzullayevnaning turmush o'rtog'i Iсроil Marupov ham vrach edi. U qator yillar Tibbiy-sanitariya bo'limida vrach-endoskopist bo'lib xizmat qildi. Afuski, beshafqat o'lim Iсроil Islomovichni 2010-yilda bu yurug' olamdan olib ketdi... M.Marupova ona sifatida farzandlari baxtu kamolidan har qancha faxrlansa arziydi. Katta qizi Sitara Iсроilovna



Marupova Toshkent davlat tibbiyot akademiyasiga grand asosida o'qishga kirib, oliygohni muvaffaqiyatli tugalladi. Ayni paytda u Toshkent shahridagi "Sito Medlayn" xususiy klinikada rahbarlik qilish bilan birga ginekologiya sohasida bepustlik va uni davolash mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini nihoyasiga yetkazayapti. Ikkinchi qizi Sabina Iсроilovna Marupova poytaxtda farmatsevtika sohasida tadbirkorlik bilan shug'ullanadi. Mahbuba Fayzullayevnaning o'g'li Feruzga har bir ota-ona havas qilsa arziydi. Feruz Toshkent farmatsevtika institutini tamomlagan, 60 ming dollar miqdorda davlat grantini yutib, Angliyaning Lester shahridagi Demontford universitetining magistratura bosqichiga o'qishga kirdi. Hozir mazkur oliygohni tugatib, yaqinda ochilgan Toshkent farmatsevtika texnika universitetida katta ilmiy xodim lavozimida ishlayapti. Feruz Marupov dori vositalari ishlab chiqarish mavzusidagi ilmiy ishini tugallash arafasida.

Turli sanalar, bayramlar nishonlanadigan kunlarda Mahbuba Fayzullayevnaga ko'plab qo'ng'iroqlar bo'ladi. Undan shifotopgan bemorlar tajribali vrachni qutlash barobarida ko'ngillaridagi cheksiz his-tuyg'ular, ezgu tilaklarini izhor etishadi. Qo'ng'iroq qiladiganlar orasida oila qurib, yillab farzand kutgan, Mahbuba Fayzullayevnaning davolashlaridan keyingina onalik baxtiga musharraf bo'lganlar ham bor. Ularning his-hayajonlari, samimiy niyatlarini izohlashga hojat yo'q. "Hammasi, Ollodhan, biz faqat sababchi bo'lamiz", – deydi kamtarlik bilan M.Marupova.

Tajribali shifokor Mahbuba Fayzullayevna telefonida "Nevarangiz falon o'quv yurtiga o'qishga kirdi yoki oliygohni tugalladi",-degan xushxabarlarni yuzlab marta eshitgan. Bunday kezlarda gap kim haqida borayotganligini daf'atan xotirasiga keltirib olmaydi. Buning iloji ham yo'q. Chunki ginekolog-vrach M.Marupovaning minglab nevaralari bor-da! Muhimi, qo'ng'iroq qilayotgan ayol farzandining taqdiridan boshli osmonga yetayotgan, hayotidan rozi – baxtli ona! Zero bunda Mahbuba Fayzullayevna hayotining asl mazmuni mujassam.

Nizomiddin SADRIDDINOV.

1 марта в актовом зале РУ «Кызылқум» состоялся конкурс «Нафосат маликалари», посвященный Международному женскому дню 8 марта среди прекрасных работниц рудоуправления.

«НАФОСАТ
МАЛИКАЛАРИ»

Участницам были предложены 5 заданий, которые выполнялись согласно установленному времени. Так, компетентное жюри оценивало визитную карточку (участницы представляли себя), вопросы на логику, красивую нарезку фруктов (карвинг), конкурс талантов и умение быстро отделить друг от друга разного вида крупы.

По итогам конкурсно-развлекательной программы, которая прошла в дружеской атмосфере, победительницами стали Лайло Турдиева, работница цеха №2 ГМЗ-1, Азиза Турсунова, кладовщик карьера «Аристантау» и Фаризат Баратова, контролер отдела технического надзора ГМЗ-1, занявшие 1, 2 и 3 места соответственно.

Всем участницам вручены ценные подарки и дипломы. После торжественной части всем гостям предложено попробовать вкусные яства умелых хозяюшек.

Ситора ЯТИМОВА.

ZAFAROBODNING OQILA BEKASI

"Navoiyuran" DK "Zafarobod" kon boshqarmasida mehnat qilayotgan 373 nafar xotin-qizlarning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida samarali mehnat qilish bilan bir qatorda, farzand tarbiyasi va oila mustahkamligi ta'minlash, jamoalarda ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirish va milliy qadriyatlarini targ'ib etishdagi xizmatlari ham e'zozga loyiq. Ayollarning nozik didi, har ishga qunt bilan yondashuvi, tabiatan saranjom-sarishtaligi atrofdaqilarga doimo o'rnak va namuna bo'lib xizmat qiladi.

Ana shunday ayollardan biri 3-geotexnologik koni ma'muriy-xo'jalik qismi maxsus kiyimlarni yuvish va ta'mirlash bo'yicha mashinisti Gulnora opa Jo'liyeva. Gulnora opa korxonada 36 yil, xususan, ushbu yo'nalishda 18 yildan buyon halol mehnat qilib kelmoqda. Inson qanday kasbda bo'lmasin, qilayotgan ishiga mehr qo'yishi kerak. Shundaygina uni sidqidildan bajaradi, deb o'ylayman. Hech qachon qilayotgan ishmdan uyalmagan yoki afsuslanmaganman. Shunday nufuzli korxonada ishlayotganim, ishchi-xodimlar toza, orasta maxsus ish kiyimlarida, yaxshi kayfiyat bilan mehnat qilayotganidan quvonaman, faxrlanam. Otam maktabda informatika fani o'qituvchisi edi, lekin texnikani ham juda yaxshi tushunardi. Uyimizda dazmol, radio va boshqa texnikalarni o'zi ta'mirlardi. Otamdan shu xislat menga o'tgan bo'lsa kerakki, maishiy texnikalar bilan ishlashga qiziqaman, bu qiziqishim esa hozirgi faoliyatimda juda asqotayapti, – deydi qahramonimiz.

Nurota tumanining Soykechar qishlog'ida voyaga yetgan Gulnora opani taqdir shamollari Qizilqum cho'lariga uchirma qiladi. Turmush o'rtog'i Yuldosh aka Julyev 1985-yilda institutni bitirgach, kon boshqarmaga yo'llanma beriladi va Zafarobod qo'rg'onidan ikki xonali xizmat uy ajratiladi. Yosh oila bu manzil-makonda palak yozib, 3 qiz va 1 o'g'lini tarbiyalab, voyaga yetkazdi. Gulnora opa mehr quygan Zafarobod ularning makoni, Vatanga aylandi.

G.Julyeva mehnat faoliyatini korxonaga qarashli bolalar bog'chasida ishchi bo'lib boshlagandi. Turmush o'rtog'ining qo'llab-quvvatlashi bilan Navoiy maktabgacha ta'lim pedagogika bilim yurtida sirdan



o'qidi va ko'p yillar ushbu muassasada tarbiyachi bo'lib ishladi. 2006-yildan boshlab esa 3-geotexnologik koni ma'muriy-xo'jalik qismida maxsus kiyimlarni yuvish va ta'mirlash bo'yicha mashinist bo'lib mehnat qilayapti. O'tgan davrda maxsus kiyimlarni yuvish, dazmollash va ta'mirlash uchun foydalanadigan barcha texnikalarning sir-asrorlarini puxta egallab oldi.

– Gulnora opani butun seximizda kattayu-kichik hurmat qiladi. Samimiy, juda sabrli, og'ir-bosiq inson.

O'z ishiga mas'uliyat bilan yondashadi. Ziyrakligi bois texnikalarimizni ovoziga qarab nosoz joyini aniqlaydi, ularni ko'p yillar ishlatish qoidalarini yaxshi biladi. Shu bilan birga bo'linmamizdagi yoshlarga erinmasdan hayot saboqlaridan dars beradi, – deydi kon sanitariya o'tish joyi mudiri Venera Abdiramanova.

Inson umri bir tekis ketmaydi. Gohida kutilmagan zarbadan inson esankirab qolishi mumkin. Bundan to'rt yil oldin bevaqt o'lim Gulnora opaning turmush o'rtog'ini olib ketdi. Yuldosh aka uzoq yillar "Zafarobod" kon boshqarmasi 6-avtomobil korxonasida ekspluatatsiya bo'yicha boshlig'i vazifasida mehnat qilgan faxrli xodimlardan biri, oilada mehribon turmush o'rtog' va g'amxo'r ota edi. Gulnora opa Yuldosh akani oilaparvar, samimiy, mehribon inson, ishonchli suyanchiq sifatida xotirlaydi.

Shunday og'ir damlarda Gulnora opaqa mehnat jamoasi, sevimli farzandlari yordam berdi. Sakkiz nafar nevaraning sevimli buvionisi Gulnora opa bugun farzandlari yutuqlaridan mamnun. Katta qizi Gulnoz "Navoiyuran" DK boshqarmasi Mehnatni tashkil etish va ish haqi bo'limida muhandis, Shohista "NKMK jamg'armasi" DM "Zafarobod" Hududiy boshqarmasida Mehnatni tashkil etish va ish haqi bo'limida muhandis, Maftuna "Zafarobod" kon boshqarmasi 2-geotexnologik konida iqtisodchi. O'g'li Zuhriddin oilasi bilan Amerika diyorida istiqomat qiladi. Mehnatkash va zahmatkash ota-ona tarbiyasini olgan Zuhriddin Buffalo universitetida ishlab bilan bir qatorda, "Xalqaro iqtisod" yo'nalishi bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini ham yoqlamoqda.

Farzandlarining muvaffaqiyatlari, nabiralarning yutuqlari, ahil va inoq jamoasi, atrofdaqil odamlar Gulnora opaning yuragiga quvvat baxsh etib turadi. U bugungi tinch-xotirjamligidan turmush o'rtog'ining ruhi shod ekanligini har lahza his qiladi va bu tuyg'u uni ertangi kunga ishonch bilan farzandlarining kamolini ko'rishdek baxtga yetaklaydi.

Nafisa SAGATBAYEVA,

"Navoiyuran" DK "Zafarobod" KB muhandisi.

■ 2024 – Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili

O'zbekiston, tom ma'noda, yoshlar mamlakati. Bugungi kunda aholining katta qismini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlar siyosati, uning mohiyati va tamoyillari, yo'nalishlari, aytish muminki, dunyo hamjamiyati tomonidan ham e'tirof etilmoqda. Davlatimiz Rahbarining jahon minbarlarida global masalalar yechimi qatorida yoshlar bilan bog'liq tashabbuslarni ilgari surayotgani bejiz emas.

sidan o'quvchilarga batafsil ma'lumotlar taqdim etilmoqda. Professional ta'lim muassasalari yoshlari uchun o'tkazilib kelinayotgan bunday "Ochiq eshiklar kuni"dan bosh maqsad ularni auditoriyalar va laboratoriya xonalaridagi mas-hg'ulotlarga jonli jalb etish orqali ilimga qiziqishlarini oshirishdir.

Bugungi kunda yurtimizda yaratilgan yana bir imkoniyat texnikum bitiruvchilari

YANGI IMKONIYATLAR



nikumda ikki yil davomida yetarli "kredit" to'plagan o'quvchilar "2+2" yoki "2+3" dasturlari asosida oliygohlarning ikkinchi yoki uchinchi kurslarida ta'limni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Albatta, bunday tub o'zgarishlar nafaqat professional, balki oliy ta'lim sifati jahon tajribasi asosida izchil yuksalishga puxta zamin hozirlaydi. Yig'ilishda kollej-texnikum o'quvchilarini dual ta'lim bilan qamrab olishni tashkil qilish topshirig'i ham berildi. Darhaqiqat, dunyo tajribasidan kelib chiqsak, dual ta'lim — qisqa muddat ichida yosh mutaxassis qimmatli tajriba va professional ko'nikmalar bilan birga akademik daraja va kasbiy malakaga ega bo'lishiga imkon yaratadi. Ma'lumki, bir qator Yevropa mamlakatlari hamda Xitoy, Indoneziya kabi davlatlar mehnat bozorida ta'limning mazkur turi katta ahamiyatga ega.

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti misolida aytadigan bo'lsak, oliy ta'lim dargohimiz qoshida Uchquduq va Zarafshon sanoat texnikumlarida hamda Karmana va G'ozg'on politehnika texnikumlarida faoliyat yuritmoqda. Mazkur muassasalarda har o'quv yilida o'rtacha 2 ming nafardan ortiq yoshlar konchilik, energetika hamda sanoatning boshqa tarmoqlari bo'yicha turli kasblarni egallab kelishayapti. Universitet tomonidan mazkur ta'lim dargohlarini moddiy va metodik ta'minlash ishlari doimiy ravishda amalga oshirilayapti.

Universitet viloyat hududidagi bir qator kollej, texnikum va litseylar bilan hamkorlik olib borayotgan bo'lib, o'quvchi yoshlar universitetga muntazam ravishda tashrif buyurishayapti va talabalarimiz hayoti bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'lmoqda. Fakultetlar t'yutorlari hamda yoshlar yetakchilari tomonidan universitetda yaratilgan sharoitlar, mavjud yo'nalishlar, imkoniyatlar, xorijiy tillar, san'at va sport sohasida tashkil etilgan to'garaklar yuza-

rini suhbat asosida oliy ta'limga o'qishga qabul qilish amaliyoti sanaladi. Joriy o'quv yilida texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan 50 nafardan ortiq yoshlar yakka tartibdagi suhbat orqali universitetimizga 2-bosqichdan qabul qilinib, o'qishni davom ettirmoqdalar. Hozirda professor o'qituvchilar va doktorantlarni birlashtirish orqali professional ta'lim muassasalarini metodik va ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimi ham samarali yo'lga qo'yilgan. Jumladan, universitetning 164 nafar professor-o'qituvchisi hamda 34 nafar doktoranti viloyatning 17 ta kasb-hunar maktabi, texnikum va kollejlari bilan birga akademik daraja va kasbiy malakaga ega bo'lishiga imkon yaratadi. Ma'lumki, bir qator Yevropa mamlakatlari hamda Xitoy, Indoneziya kabi davlatlar mehnat bozorida ta'limning mazkur turi katta ahamiyatga ega.

Umuman olganda, ilgari surilayotgan barcha tashabbuslar, amaliyotga joriy etilayotgan chora-tadbirlar yoshlar siyosatida navqiron aloq uchun mavjud imoniyatlar ko'lamini yangi bosqichga olib chiqadi. Yurtboshimiz chiqishlarining birida "Dunyoqarashni nima o'zgartiradi — ilm, daromad, manfaat", deya ta'kidlaganlaridek, ushbu yangicha tizim ulg'ayib kelayotgan avlodni ilimga faol ravishda chorlab, shu orqali ularning hayotda munosib o'rin egallashiga asosli va zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Har bir yosh — nafaqat ertamiz, balki bugungi kunimizning ham munosib egasi. Bugun ular ana shunday yuksak mas'uliyatni, ya'ni o'zi va o'zgalar taqdiriga daxldorlikni his qilib tarbiya topsa, demak o'z sohasida malakali hamda yetuk mutaxassisga aylanadi. Aslida jamiyat izchil taraqqiy etishining sharti ham, mohiyati ham — yoshlarning puxta bilimi, milliy qadriyatlar chuqur ilidiz otgan pok ma'naviyati va yuksak dunyoqarashidir.

Baxtiyor MARDONOV,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti rektori, texnika fanlari doktori.

■ Dolzarb mavzu

DAVR TALABIGA JAVOBAN

"NKMK jamg'armasi" DM Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'limi jamoasi davr talabidan kelib chiqib, o'z faoliyatida qator ishlarni amalga oshirmoqda.

Muassasa boshqarmasi va uning tarkibiy bo'linmalaridagi kompyuter va texnika qurilmalariga sifatlari va o'z vaqtida xizmat ko'rsatish, ishchi kuchini kamaytirish maqsadida qurilmalarga xizmat ko'rsatishning masofaviy shakli "NetAgent" va "Radmin" ishchi dasturlari yo'lga qo'yildi.

Hududiy boshqarmalarga qarashli Tibbiy-sanitariya bo'limi hamda Tibbiy-sanitariya qismlariga "TechnoMed" web dasturi o'rnatildi va mas'ul shaxslar belgilanib, ishchi-xodimlar bilan bir necha bor malakaviy seminarlar uyushtirildi.

Jamg'armada "1C Korxonalar: buxgalteriya hisobi, ish haqi va xodimlarni boshqarish" axborot tizimi joriy etildi. Foydalanuvchilar ro'yxati shakllantirildi, kompyuter qurilmalari texnik parametrlari kuchaytirildi.

Boshqarma hududida aloqa sifati yaxshilash maqsadida telekommunikatsiya apparatlarini yangilandi, "Navoiy" hududi kesimida optik tolali aloqa tarmoqi liniyasi o'tkazildi. Buning evaziga har yiliga 276 million so'm tejab qolinadi. "Zarafshon" hududiy boshqarmasi hududlariga ham optik tolali aloqa liniyalari o'tkazilib, zarur qurilmalar bilan ta'minlab berildi. Dasturiy ta'minot vositalari va internet xizmatlari ko'rsatish uchun rasmiylashtirilgan 61 ta shartnomalar ijrosi kontragentlar

tomonidan doimiy nazorat qilib borilmoqda.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari bo'limi xodimlari yil boshidan hozirgacha texnikalarining diagnostikasi, ularning uzluksiz ishlashini ta'minlash, telefon apparatlarini va liniyalarni sozlash, kompyuter dasturlari va qurilmalar sozligini tekshirish bo'yicha 1 WW435 ta chaqiruv xabarlarini olishdi va kamchilik, nosozliklarni imkon boricha tezkorlik bilan bartaraf etish choralari ko'rildi.

Jamg'armada mobil aloqa va telefon aloqasi tizimini takomillashtirish maqsadida autorsing xizmatlaridan foydalanilib, "EASTTelekom" va "Uztelekom" korxonalarini bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi hamda "Uchquduq", "Zarafshon" va "Zarafshon" Hududiy boshqarmalari telefon tizimi tannarxi kamaytirishiga erishildi.

Jamg'armaga qarashli dam olish maskanlarida televideniya va internet ma'lumot almashinish sifati oshirildi, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari uchun mavsumiy navbatchi sim-karta va telefon apparatlarini ta'minoti yo'lga qo'yildi.

Bo'linmalar orasida tovar-moddiy zaxiralarni raqamlashtirilgan ishonchnomalar tizimi — 1C dasturi joriy etildi. Jamg'arma hamda Hududiy boshqarmalarni "NKMK jamg'armasi" DM boshqarmasi asosiy binosida joylashgan markazlashgan tarmoqqa birlashtirishning ishchi xaritalari tuzilib, hozirgi kunda bu ishlar boqichma-bosqich amalga ishirlimoqda.

Sardor FAYZIYEV,
"NKMK jamg'armasi" DM AKT bo'limi boshlig'i v.b.

■ На злобу дня

СВЕСТИ НА НЕТ НЕСЧАСТНЫЕ СЛУЧАИ

Одно из крупнейших в мире золотодобывающих предприятий, как Акционерное общество «Навоийский горно-металлургический комбинат», несет огромную ответственность за создание безопасных условий труда рабочих, позволяя снизить или исключить производственный травматизм.

Однако на протяжении последних нескольких лет отмечался высокий уровень несчастных случаев, достигнув пика в 2022 году. Ситуация стала нетерпимой, в связи с чем руководством поставлены задачи, которые начали реализовываться с начала 2023 года. Укрепление производственной дисциплины в части охраны труда и техники безопасности — немедленное принятие мер дисциплинарного и иного воздействия на всех уровнях производственной структуры в отношении нарушения правил безопасности. Личная ответственность производственных руководителей за состояние охраны труда и недопущение травматизма — они лично отвечают за все несчастные случаи и, соответственно, за правильность организации трудовой деятельности в полном соответствии с требованиями производственной безопасности.

В связи с возросшей ролью и ответственностью службы ОТ и ТБ, решено централизовать её, как изложено выше, инженеры выведены из подчинения служб главных инженеров производственных предприятий АО «НГМК». Это сделано с целью независимой регулярной оценки состояния охраны труда на производственных объектах и доведения результатов этой оценки

непосредственно до директоров рудоуправлений и руководства АО «НГМК».

За год удалось добиться значительного прогресса в области управления безопасностью. По итогам 2023 года уровень травматизма снизился в три раза по сравнению с 2022 годом. Это хороший показатель работы специалистов охраны труда и техники безопасности Центрального, Северного, Южного и Навоийского управлений.

В настоящий момент проводится анализ всех аспектов деятельности службы ОТ и ТБ в 2023 году с целью выявления достоинств и недостатков созданной системы и принятия корректирующих мер по итогам этого анализа.

В том числе, анализируются «сигналы с мест» для выявления и устранения случаев необоснованных действий в части контроля соблюдения требований правил безопасности.

АО «НГМК» всегда остается открытым к обращениям производственного персонала о случаях возможного нарушения их прав с целью анализа и принятия, если необходимо, мер по устранению этих нарушений.

Руководство АО «НГМК» считает, что каждый из работников комбината может внести свой посильный вклад в борьбу с травматизмом и аварийностью на рабочем месте. Работодатели отвечают за безопасность и гигиену труда. Рабочие должны соблюдать правила безопасности, не подвергать себя и коллег необоснованному риску, зная свои права и участвовать в осуществлении профилактических мероприятий.

Александр ЧЕРДАНЦЕВ,
директор Департамента охраны труда, промышленной безопасности и экологии.

■ Женский коллектив

Профессии этой уже более 500 лет, а она по-прежнему современна, и в наши дни является одной из самых востребованных. Это бухгалтер. А хороший бухгалтер — это половина успешной деятельности всей организации.

бината. Бухгалтера, обрабатывающие склады, на которых учитываются горюче-смазочные материалы, проводят инвентаризацию ежемесячно. Сплошная инвентаризация материальных ценностей

ПРОФЕССИОНАЛЫ, ВОСТРЕБОВАННЫЕ ВО ВСЕ ВРЕМЕНА



Бухгалтеров можно назвать бойцами невидимого фронта: их работа в полной мере не заметна человеку, наблюдающему со стороны, а на самом деле ни одно предприятие, ни одна организация не могут существовать без бухгалтерии. Меняется законодательство, постоянно появляются новые указы и постановления, и, конечно же, бухгалтер обязан всё это вовремя изучить и принять к исполнению. Постоянное повышение квалификации, скрупулёзность, точность, ответственность, усидчивость, внимательность, сосредоточенность и аккуратность, — всеми этими качествами должен обладать хороший бухгалтер.

В Центральной бухгалтерской службе (ЦБС) управления АО «Навоийский ГМК» семь отделов, каждый из которых выполняет свои функции. Сегодня речь пойдёт об отделе учёта материальных ценностей, руководит которым опытный бухгалтер Наталья Анатольевна Муштаева. Когда заходишь в кабинет этого отдела, то сразу попадаешь в уютную атмосферу, которую создают красивые картины на стенах, тёплые и доброжелательные улыбки его обитателей.

В начале 2024 года в структуре ЦБС произошли изменения, — говорит Н.А.Муштаева, — и теперь наша служба вошла в состав Департамента финансов. На сегодняшний день в нашем отделе по учёту материальных ценностей работают десять бухгалтеров, включая начальника отдела. Все женщины и девушки. Коллектив у нас дружный, девочки с огромным удовольствием приходят на работу, потому что в нашем коллективе царит атмосфера домашнего уюта, взаимовыручки и поддержки. Все возникающие проблемы стараемся решать сообща и радуемся за успехи, успехи и хорошие события, происходящие не только на работе, но и в семьях. По большому счёту мы и есть одна большая дружная семья. Для меня очень важна хорошая обстановка в коллективе.

Когда я прихожу на работу и вижу, что мои коллеги в хорошем настроении, дело спорится, то и самой приятно находиться в этой атмосфере...

В отделе учёта материальных ценностей работают высококвалифицированные бухгалтера, практически все с 1 и 2 категорией. Коллектив достаточно молодой, но опыта им не занимать. Даже те специалисты, которые пришли совсем недавно, сразу же влились в эту семью. У каждого работника отдела свои обязанности, с которыми они отлично справляются. Профессионалы своего дела знают все «тонкости» этой непростой профессии, прекрасно владеют методикой составления отчётности, хорошо ориентируются в статистической и финансовой деятельности. А иначе никак, ведь современная жизнь предъявляет высокие требования к профессиональному уровню сотрудников в любой сфере человеческой деятельности. И компетентность выходит на первый план.

Деятельность отдела заключается в учёте материальных ценностей, поступивших от сторонних контрагентов, а также переданных в структурные подразделения комбината. Каждый бухгалтер ведёт учёт на нескольких складах, находящихся на территории Центральной материально-технической базы, а также в управлении НГМК, Учебном центре, Военизированной пожарной части и Представительстве НГМК в городе Ташкенте. Помимо этого, отдел отражает автотранспортные и железнодорожные услуги, связанные с перевозкой грузов, а также ведёт учёт материальных ценностей, переданных в переработку на сторону.

Помимо этого, в сроки, установленные соответствующим стандартом в системе комбината, проводится как периодическая — выборочная, так и сплошная инвентаризация материальных ценностей, что позволяет своевременно выявлять и предотвращать хищение имущества ком-

проводится по состоянию на 1 октября.

В этот период частенько погода не балует, но рабочие комиссии, в состав которых входят бухгалтера, инженеры Управления материально-технического снабжения, а также другие специалисты, стойко выполняют поставленную задачу, невзирая на погодные условия. Также через данный отдел проходят обменные доверенности, на основании которых все подразделения комбината могут получать необходимые материальные ценности в рамках заключённых договоров.

В конце каждого отчётного периода руководителем отдела собираются расшифровки по ТМЦ, формы по налогу на добавленную стоимость и производится сверка по таможенным платежам, связанным с импортируемым в ЦМТБ площадке Навои грузом.

Современные бухгалтера помимо прочих навыков должны уметь работать в специальных компьютерных программах. На сегодняшний день работники ОУМЦ, помимо программы «Инфоро» локальной учётной системы, работают в программе 1С.ERP «Управление Холдингом», в связи с чем, ежемесячно производят сверку данных, отражённых в двух учётных системах. В ближайшее время планируется запустить ещё одну программу 1С. «Бухгалтерия», которая на сегодняшний день тестируется в Центральном рудоуправлении и в дальнейшем заменит программу «Инфоро».

— На первый взгляд наша работа может показаться скучной и однообразной, однако, это не совсем верное мнение, — говорит Н.А.Муштаева. — Наша работа требует высокой концентрации и сосредоточенности, ведь правильно оформленные документы — это залог того, что любая проверка будет пройдена успешно. Для работы в бухгалтерии сотрудники должны обладать определённым багажом знаний, так как бухгалтерия — это точная наука, она причаёт к аккуратности и идеальному порядку. В своей работе мы руководствуемся нормативными документами: законами, кодексам, стандартам, положениями. Жизнь не стоит на месте, а это значит, что каждый бухгалтер постоянно совершенствуется, повышает свою квалификацию, увеличивает багаж знаний. Наша работа для нас — также творческий процесс. Конечно, бывает трудно, ведь на нас лежит большая ответственность, порой, устаешь от однообразия операций. Но, когда ты видишь слаженную работу, итоговый результат коллектива, — получаешь огромное удовлетворение.

В завершение можно отметить, что отдел учёта материальных ценностей — это часть одного большого, слаженного механизма, благодаря которому живёт и процветает машина, под названием комбинат.

Насиба ШАМУРАТОВА.

■ Досуг

ВРЕМЯ ДЛЯ ОТДЫХА

Про отдых в горах можно сказать, что, кроме незабываемых впечатлений, каждый получит еще и оздоровление всего организма, так как здесь самый чистый и самый полезный воздух. Причем, как летом, так и зимой. Недаром, большинство долгожителей проживают в горной местности.

Спортивно-оздоровительный комплекс «Пансионат «Горняк» достоинно зарекомендовал себя среди работников Навоийского горно-металлургического комбината и членов их семей, и вот уже 22 года принимает отдыхающих круглый год в курортной зоне Чарвакского водохранилища в поселке Юсуфхона Бостанлыкского района Ташкентской области.

В период пандемии коронавируса «Горняк» перестал действовать, и тогда руководство комбината приняло решение начать ремонт главного корпуса. На территории в пять гектаров расположены

и ужина, наслаждалась от окружающей красоты и редких видов цветов и растений. Летом, сбегая от городской жары, в горах даже днем прохладно и приятно!

- Мы тщательно следим за чистотой помещений, постельного белья, - рассказывает зам. директора Татьяна Резванова. - При необходимости персонал оказывает помощь с любыми бытовыми делами (глажение, стирка одежды). А повара на нашей кухне готовят с любовью и исключительно из качественных продуктов. Меню всегда разнообразное, учитываются индивидуальные особенности. Все



спортивные площадки, теннисный корт, летний сад, детская площадка, физкультурно-оздоровительный комплекс с тренажерным залом, крытыми бассейнами для детей и взрослых и сауной. Здесь имеются спальный и хозяйственный блоки, пищеблок, библиотека, киноконцертный зал на 100 мест, бар.

Для запуска объекта потребовалось тщательно продумать множество деталей и тонкостей. Силами профессиональных мастеров и строителей ДП «Элемент туризм» в период с сентября 2020 по июнь 2023 года выполнены демонтажные и монтажные работы. Полностью заменены и реконструированы система отопления, гидроизоляции, сантехника и система вентиляции, окна и двери. Увеличили количество спальных номеров.

14 июня 2023 года «Пансионат «Горняк» снова заработал. Теперь каждый заезд на 12 дней по путевкам на отдых собираются 155 работников НГМК и члены их семей.

- В конце июня одними из первых после капремонта пансионата с подругами-коллегами взяли путевки и приехали в «Горняк», - рассказывает работник управления АО «НГМК» Мунира Шадманова. - Впечатлил ремонт, вид главного корпуса теперь как заграничный отель, все современное и модное. Горный воздух, чистый и насыщенный кислородом, такое сочетание способно крайне положительно повлиять на состояние здоровья. У человека повышается аппетит, заметен румянец на щеках, улучшается настроение, появляется желание жить и созерцать прекрасное. Ах, какая природа! Подолгу прогуливаясь по территории после обеда

блюда богаты микро- и макроэлементами, витаминами для укрепления иммунитета.

- В декабре 2023 года, впервые после долгожданного ремонта, нам со всей семьей удалось побывать в столь красивом месте, как пансионат «Горняк», - рассказывает инженер УИКТ Анастасия Тобибова. - Отличный ремонт, который оправдал все ожидания, теплые, а главное чистые номера. Отдельное спасибо персоналу, который занимается благоустройством территории. Если вы еще не отдыхали в «Горняке» зимой или вас что-то сдерживает туда поехать, предлагаю главное преимущество зимнего отдыха в горах на собственном примере. После него отказаться от этой затеи вы больше не захотите. В первую очередь, снег, который навоийские дети не видят годами, а здесь, в горах, его много. Благодаря чему можно покататься на санках и встать на лыжи, слепить снеговика, пойти на каток. Что мы и делали - я, муж и наши два сына. Мы получили наслаждение от каждой минуты пребывания в таком замечательном месте. Для развлечения и активного отдыха предлагаются поездки по Святым местам Бречмуллы и Богустана и на канатно-кресельные дороги Чимгана. Вечерами проводятся дискотеки в баре, караоке, а для детей в актовом зале на большом экране показывают мультипликационные и художественные фильмы, различные концертные программы и т.д.

Великолепные пейзажи, величие гор, свежий воздух, комфортабельные условия для проживания делают СОК «Пансионат «Горняк» лучшим местом отдыха от городской суеты и проблем!

Мила КАРИМОВА.

■ Dildagi gaplar

BAXT KITOBIM MUNDARIJASIDAN...

"Yurgan daryo - o'tirgan bo'ya", deganlaridek, 2003-yilda umr yo'llarim Namangandan Uchquduqqa tutashdi. Yigirmaga kirib bir bora poytaxtni ko'rimgan qiz palaxmon toshidek olis Navoiyga yo'l olarkanman, tug'ilgan tuproqdan yig'lab-yig'lab olislanib, daraxtlarning shoxlariga sog'inch ro'molchamni tugib-bog'lab, o'zbekning alpelbat yigitiga yor-yor bo'lib kelibman. Umr shamoldek yelibdiyu o'shandan beri o'zim qirqqa, sog'inchlarim yigirmaga kirib qolibmiz. Bu uzun yo'llarim yo hazrat Boburdek tug'ilgan tuproq sog'inchi o'rtadimi va yo yaxshilar ilhom berdilarmi, hartugul, o'ttizimda bir nimalar tirkab qo'yadigan bo'ldim. Qirgim ostonasida yaxshilarning e'tibor va e'tiroflari ijod olamiga yo'l ochdi, maqolalarim u qadar pishiq va puxta bo'lmasada, ustozlar qo'l uzatganlari, kombinatning ijodkorlarga bo'lgan e'tibori bois yelkamga qanot bitdi! Qachonlardir, olis Namanganda, qalbidami nish otib, biroq bo'y ko'rsatolmagan ilhom chechlaklari shu ulug' dargohda ulg'aydi. Yaratgan menga, poydevoridan shifti qadar har g'ishtli ilm

bo'lgan qudratli korxonada olimlar, kasbi - hayotining mazmunini bo'lgan fidoyi mutaxassislar, qalbi mamon yaxshi do'stlar bilan ishlash ne'matini berdi! Bugun Namangan sog'inchi o'rtab, yoshlangan ko'zlarim endi yig'loqi emas, Navoiy kon-metallurgiya kombinati xodimi bo'lishdek, har kimga ham nasib etavermaydigan baxtni berganidan "Baxtimdan o'rgilay!", deymanu borlig'imni shukronalik hissi qamrab oladi.

HAYRAT

Bolaligimda, kunlar soviyb, zarg'aldoq tusidagi barglar qilam bo'lish ko'yida yerga to'kilib, bulutlar yig'loqlikni kasb qilarkan, qishda uylarni isitish uchun ko'mir keltirilardi. Biz bolalar ana shu ko'mirlar ichidan kumushrang tosh - piriltlarni topib olib, "Mening oltinim, mening oltinim!", deya talashardik, pirilti oltin deb o'ylab hayratlanardik. Bugun esa oltinning tug'ilishi ko'mir orasidan topilgan piriltardek oson emasligini tushunganim holda, ilm mavjlanayotgan ulkan ummonda bir zarraga o'xshayman...

QIYOS

Vodiyda yer juda saxovatli - qalamdek keladigan shoxchalarni tuproqqa suqish kifoyat! Gullab-yashnab, ko'kka bo'y cho'zib, ko'zingizni qunatadi. Vodiyda uchi bulutga sanchilgudek azim daraxtlar tegrasida o'sdim. Qizilqumda ham yer juda saxovatli - xazinalarini ko'ziga yashirib olgan! Ilmingiz, shijoat va shashtingiz bo'lsa bas, bag'rini ochadi. Bugun, vodiydagi daroz daraxtlardan farqli ravishda ilm qudratidan ko'kka o'rlagan texnologiyalar tegranda. Ilm va izlanish samarasi bo'lgan qozonni yerdan naqd 14 metr balandlikdagi - bioreaktorlarni kuzatish maydonidan, yuksaklikdan tomosha qilish hamma nozik jins vakillariga ham nasib etavermaydigan baxt!

KAMOLOT SARI

Taqdirim Uchquduqqa ko'chdi. Oliy ma'lumotliman. Maktabga ishga olishmadi. Xafa bo'ldim. O'sha kun Uchquduq ko'zimga biram begonadek ko'rinib ketdi! Biroz vaqt o'tib, Shimoliy kon boshqarmasi tasarrufidagi bog'chaga ishga yo'llanma

berishdi. Quvonib ketdim! Bolalarni yaxshi ko'raman! Rus tilini to'liq bilmasdim. Bog'chada faroshlik qila boshladim. Goh-gohida rasm chizish, plastilindan narsalar yasash, applekatsiya ishlarida tarbiyachilarga yordamlashardim. Bular mening bolalikdagi (hattoki hozirda ham!) eng sevimli mashg'ulotlarim edi! Uchquduqdan xafagarchiliklarim unutilib ketdi, yetisholmagan orzularimga yetgandek bo'ldim. Kombinat tarkibidagi bog'chalarda san'at, madaniyat, haykaltaroshlik, musavvirlik, taomlar retsepturasi, sanitar-epidemiologik qoidalar, bolalar bilan ishlash uslubiyati, ularning o'zlaridek beg'ubor va keng dunyosi, qo'yingchi, kasbiy mahorat va hayotiy tajriba orttirish uchun zarur bo'lgan barcha omillar mavjud edi. Kombinat bog'chalari hayoti meni bosqichma-bosqich shakllantirdi.

ORZU

Talabalik yillarimiz bir shoir yigit ijodkor qizga atab "To'y qilmasdan hamma pulimga, sizga kitob sovg'a qilardim..." misrali she'rini tuhfa qildi. Orzularimizni ifodalagan biram ajoyib she'r edi! Biz qizlar

kelajakda kitoblarimiz juda ko'p bo'lishini xohlardik, bu kursimizdagi deyarli hamma qizlarning orzumiz edi. Menimcha, ularning orasida orzulariga yaqinroq borganimiz - bir-ikki o'rtog'im va men bo'ldik! Orzular ham muhit ta'sirida o'zgararkan, o'sha paytlar ko'p kitoblari bo'lishini orzulagan o'rtoqlarimning bugungi qarashi boshqacha, avvallari uyqash bo'lgan xohishlarimiz hozir bir-biridan biroz ayrocha! Hazrat Alisher Navoiyning ulug' nomlari-la atalgan Navoiy muhiti mendan o'sha orzularimni tortib olmadi, aksincha, ko'maklashdi, qanot berdi va natijada kichik bo'lsa-da mo'jaz kutubxonam paydo bo'ldi, bundan tashqari, xonamiz ham kitoblarga to'liq!

SHUKRONA

Kombinat birgina mening taqdirimda shu qadar beqiyos o'zgarishlar yasadi. Ha, bu dargoh chindan ham taqdiri kon-metallurgiya sanoati bilan bog'langanidan baxtiyor minglab ayollarning shukronasi va masrurligiga to'la!

Nilufar MUJINOVA, SHKB mutaxassisi.

■ Ma'naviyat

TAFAKKUR XAZINASASI

Kitob va kutubxonalar azal-azaldan insonlar uchun ma'naviyat va ma'rifat maskani bo'lib kelgan. Ziyi istagan qalblar uchun kitob doimo ular hayotining ajralmas qismi sanalgan. Yurtimizda xalqimiz, ayniqsa, yoshlar orasida kitob mutolaasiga, kutubxonalar faoliyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda Navoiy kon-metallurgiya kombinati ma'muriyati, kasaba uyushmasi Kengashi tomonidan ishchi-xodimlar, ularning oilasi va farzandlari uchun barcha imkoniyat va sharoitlar yaratib berilmoqda. Ishchi-xodimlarning ma'naviy saviyasini yuksaltirish kombinatda ustuvor vazifalar sirasiga kiradi.

Insoniyat tarixi va madaniyati asrlar osha shakllanib, rivoj topib kelmoqda. Bular haqida ma'lumotlar bizgacha faqat kitob orqali yetib kelgan, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Darhaqiqat, kitob - insoniyatning bebaho xazinasidir! Kombinativ kutubxonalarida doimiy tarzda o'tkaziladigan ma'naviyat ma'rifati yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini boyitish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Yoshlar ma'naviy jihatdan qanchalik yetuk bo'lishsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti shunchalik mustahkam bo'ladi.

Kombinat tasarrufidagi 5 ta texnik kutubxona hamda "NKMK jamg'armasi" davlat muassasiga qarashli Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Nurobod, Zafarobod shaharlarida joylashgan kutubxonalarining umumiy kitob fondi 562 ming 419 nusxadan iborat. Bu ziyi maskanlari kombinat ishchi-xodimlari, ularning oila a'zolari, yoshlar, hududda istiqomat

qiluvchi aholi uchun xizmat qilmoqda. Kutubxonalar har yili o'rtacha 25-30 ming nafarga yaqin kitobxonlar tashrif buyurmoqda.

Eng quvonarlisi, kombinat tashabbusi bilan http://kitob.ngmk.uz sayti ishga tushirilgan. Hozirgi kunda 158,6 ming nusxa turli xil kitob nashrlari, 14,7 ming nusxadagi jumalari raqamlashtirilib, kitobxonlar undan bemaol foydalanishmoqda. Bu elektron tizimga kombinat, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti va Toshkent davlat texnika universitetidagi 10 ta kutubxona ulangan.

Bugungi kunda kombinat texnik kutubxonalarining umumiy kitob fondi 124,5 ming nusxani tashkil etadi, - deydi "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ texnik kutubxonasi mudirasi Zulfiya Badayeva. - Ular javonidan Butunjahon, mamlakatimiz konchilik va metallurgiya sanoati, Navoiy kon-metallurgiya kombinati faoliyatiga taalluqli rang-barang ilmiy, ommabop asarlar, ilmiy adabiyotlar, qo'llanmalar, izohli lug'atlar, shu bilan birga, davriy bosma nashrlar va boshqa yo'nalishlardagi kitoblari joy olgan. Har yili kutubxonalarimiz fondi noyob, yangi chop etilgan kitoblari bilan to'ldirilishi, ma'naviy merosimiz xazinasining boyishida yaxshi samara bermoqda. Oxirgi uch yilda texnik kutubxonalarimiz fondi 2,3 ming



nusxadan ortiq adabiyotlar bilan to'ldirilgan buning isbotidir.

Korxonada ishchi-xodimlari, ratsionalizator va ixtirochilar, tadqiqotchilarga mazkur kutubxonalarda ko'rsatilayotgan xizmat ularning o'qish-o'rganishi, ilmiy izlanishlar olib borishi uchun qo'l kelmoqda. Ayni paytda bu muassasalarda nafaqat bosma asarlarni to'plash, saqlash yoki ularning elektron variantlarini yaratish, balki kitobxonlikni keng targ'ib etish va kitobxonlarga yetkazish borasida ham barcha qulayliklar yaratilgan.

- Har xil g'oyaviy tahdid va xurujlarning ma'naviy hayotimizga ta'siri ortib borayotgan bugungi globallashuv davrida jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish birinchi darajali vazifamizdir, deydi "NKMK" AJ Ma'naviyat va

ma'rifat markazi mutaxassisi Asliddin Ro'ziyev. - Turli ma'naviyat ma'rifati tadbirlarida kombinat kutubxonalarini imkoniyatlaridan keng foydalanib, kitob va uning ahamiyatini jamoa o'rtasida keng targ'ib qilib kelyapmiz. Chunki insonlar ma'naviy kamolotida kitob singari kuchli qudratga ega vosita yo'q. Shu bois, barchani, shu jumladan, hamkasblarimizni kitob o'qishga, kutubxonalariga chorlab qolgan bo'lardik.

Kombinat kutubxonalarining har biri boy tarixga ega. Bu nurxonalar yarim asrdan ziyod vaqtdan buyon ko'pming kishilik mehnat jamoasi, yoshlarning savodxonligini oshirish, ularning ma'naviy dunyoqarashi yuksalishiga mustahkam poydevor vazifasini o'tab kelyapti.

Dildora KARIMOVA.

VATANPARVARLIK - YUKSAK FAZILAT

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan Xavfsizlik kengashining joriy yil 12-yanvarda bo'lib o'tgan kengaytirilgan yig'ilishida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida qator topshiriqlar berildi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 15-yanvarda e'lon qilingan murojaatnomasida aholi, ayniqsa yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, Konstitutsiya va qonunlarga hurmat va e'tibor tuyg'usini yanada kuchaytirish, har bir fuqaroning ularga qat'iy amal qilib yashashini ta'minlash bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish vazifalari belgilandi. Yoshlar mamlakat kelajagi ekanligini nazarda tutib, yuqorida qayd etilgan topshiriq va vazifalarni bajarish, bunda izchillik va doimiylikni ta'minlash muhimligini izohlashga hojat yo'q, albatta. Respublikamiz maktab, kollej, litseylari va harbiy qismlarda yoshlar bilan "Vatanparvarlik oyli" doirasida boshlangan "Vatanparvarlik vujudimizda", "Vatan himoyasi muqaddas burch", "Men Vatanimga tayanchman", "Vatan deb urar yurak" mavzularidagi ma'naviyat ma'rifati tadbirlari, suhbat va muloqotlar muntazam o'tkazib kelinmoqda. Biz ham ishimiz, targ'ibot-tashviqot faoliyatimizga ana shu mas'uliyat va mezon bilan yondashyapmiz.

Vatanparvarlik - barcha insonlar, millatlar, xalqlar

uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik insonlarning o'z Vatani taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, xalqlarning o'zlarini yashayotgan hudud daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasidir. Vatanning o'tmishi va buguni bilan faxrlanish, kelajagi uchun qayg'urish va daxldorlik hissi bilan yashash uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida ta'kidlaganlaridek, "Iymon-e'tiqod har birimizning yuragimizda, vijdonimizda bo'lishi lozim. Islomiy hikmatlarda Vatanni sevmoq iymondan ekanligi ta'kidlanadi. Inson iymon-e'tiqodini bo'lsa, yurtiga sodiq bo'lib xizmat qilsa, u haqiqiy vatanparvar bo'ladi". Vatanga mehr-muhabbatli bo'lish - juda yuksak fazilat bo'lib, buni egallash beshikdan boshlanishi va so'nggi nafasga qadar davom etishi lozim. Faylasuf aytganiday "Ma'rifati xalqlarning haqiqiy jasorati

Vatan yo'lida qurbon bo'lishga tayyor ekanliklarida aks etadi".

Vatani sevaman, deb yuruvchilar ko'p. Ammo hamma ham Vatanga jonini fido qilishga tayyor turmaydi. Vatanga mehr-muhabbat mavhum tushuncha emas, balki haqiqiy ma'naviy tuyg'u. U Vatanga mehr qo'yishdangina iborat emas, balki Vatan bilan o'zini bir butunlikda ko'rish, uning yaxshi-yomon kunlarida asqotishdir.

Bobokalonlarimiz qilich bilan ham, qalam bilan ham, kuch-qudrat bilan ham, so'z bilan ham, aql-zakovat, kasfiyotlar va ilmiy bashoratlar bilan ham jahonni lol qoldirgan. Ular o'z davridayoq butun olamga saboq bergan. Ularining asarlari, ilmiy, ijodiy merosi va tajribalari hanuzgacha dunyo hamjamiyati, olimlar, yosh tadqiqotchilar, talabalar, o'quvchilar tomonidan hijjalab o'rganilmoqda. Eng faxrlanarlisi, sizuz bizning tomirimizda ana shunday buyuk insonlarning qoni oqmoqda. Ajdodlarimiz tabarruk va muqaddas bilgan mana shu Vatanni - O'zbekistonimizni o'z bilimimiz, egallagan kasbimiz, ijodiy ishlarimiz bilan rivojlantirish, bir umr himoya qilish, salohiyatimizni shu yurt, shu xalq uchun baxshida etish yuksak farzandlik burchimizdir.

Sherzod UNGAROV, Navoiy harbiy prokuraturasi tergovchisi, adliya kapitani.